**Bunday ifodalarning qiymatlarini topish uchun avval ko'paytirish va bo'lish amallarini bajarish, so'ngra qo'shish va ayirish amallarini bajarish kerak:**

Namuna:

- 1)  $65 + 21 : 3 = 65 + 7 = 72$
- 2)  $27 : 3 - 4 \cdot 2 = 9 - 8 = 1$



63. Misollarning yechilishini tushuntiring:

1)  $40 - 4 \cdot 7 = 40 - 28 = 12$

2)  $3 \cdot 5 + 6 \cdot 4 = 15 + 24 = 39$

64. Amallarni bajaring:

$70 - 8 \cdot 2$

$26 + 24 : 4$

$71 - 16 : 2$

$35 + 4 \cdot 7$

$32 : 8 + 39$

$9 \cdot 3 + 7 \cdot 4$

$60 : 10 + 8 \cdot 3$

$18 : 9 + 27 : 3$

$8 \cdot 4 + 5 \cdot 4$

65. 1) Ikkita tasma qirqib oling: birining uzunligi 8 sm, ikkinchisi undan 4 marta qisqa bo'lsin. Ikkinchi tasmaning uzunligi qancha?

2) 8 sm uzunlikda tasma qirqib oling. Uni 4 marta qisqartiring. Hosil bo'lgan tasmaning uzunligi nimaga teng?

66. Tikuvchi 5 ta o'g'il bolaga ko'ylak tikdi. Har bir ko'ylak uchun 2 m dan gazlama sarflandi. Tikuvchi hamma ko'ylak uchun qancha gazlama sarflagan?



2 m



2 m



2 m



2 m



2 m

Masalani jadvalga qisqacha yozing va yeching:

1 ta ko'ylak uchun sarflangan gazlama	Ko'ylaklar soni	Hamma ko'ylaklarga sarflangan gazlama
2 m	5 ta	?

67. Noma'lum sonni toping.

$x : 7 = 4$

$8 \cdot a = 32$

$21 : c = 3$

$16 - b = 4$



68. 1) Amallarni bajarish:  
 $10 \cdot (30 - 24)$                        $(56 - 20) : 4$   
 $(60 - 17) + (80 - 53)$

**Bunday amallarni bajarish uchun eng avval qavs ichida belgilangan amallarni bajarish, so'ngra qolgan amallarni amal tartibi qoidasi asosida bajarish kerak.**

2) Amallarni qulay usul bilan bajarish:

$$70 - (20 + 6) \qquad 48 + (30 + 4)$$

$$(40 + 9) - (10 + 7) \qquad 58 + (20 + 4)$$

Nima uchun bunday hollarda amallarni bajarish tartibi o'zgartiriladi?

69.  $50 : (37 - 27)$                $30 : (54 - 51)$                $(27 + 8) - 17$   
 $(18 - 12) \cdot 10$                $46 - (16 + 9)$                $90 - (60 - 5)$

70. 1) Bu sonlarning har birini 3 marta orttiring: 7, 5, 9, 4, 8, 6.

2) Bu sonlarning har birini 4 marta kamaytiring: 16, 12, 24, 20, 28, 36.

71. Bola kostumiga 3 m gazlama ketadi. 12 m gazlamadan nechta shunday kostum tikish mumkin?



72. Hovlida 5 ta qiz bola va 7 ta o'g'il bola o'ynab yurgan edi. Voleybol o'ynash uchun ular teng ikki guruhga bo'linishdi. Har bir guruhda nechta bolalar bor?



- 73.** Nuqtalar o'rniga sonlarni tanlab yozing.
- |                             |                                 |  |
|-----------------------------|---------------------------------|--|
| $7 \cdot 4 > 7 \cdot \dots$ | $4 \cdot 5 + 4 < 4 \cdot \dots$ |  |
| $9 \cdot 4 < \dots \cdot 4$ | $3 \cdot \dots > 3 \cdot 8 + 3$ |  |
- 74.** Ziyoda 3 ta kattalar do'ppisiga munchoq tikdi. Kattalar do'ppisidan, 2 marta ko'p bolalar do'ppisiga munchoq tikdi. Ziyoda hammasi bo'lib nechta do'ppiga munchoq tikgan?
- 75.** O'g'il bola 8 yoshda. Otasining yoshi o'g'lining yoshidan 4 marta katta. Otasi necha yoshda?
- 76.** Buvi 60 yoshda. Nevara buvisidan 10 marta yosh. Nevara necha yoshda?
- 77.**
- |                  |                  |                 |
|------------------|------------------|-----------------|
| $9 \cdot 1$      | $1 \cdot 7$      | $8 \cdot 1$     |
| $36 : 4 \cdot 3$ | $9 \cdot 4 - 28$ | $(73 - 45) : 7$ |
| $27 : (12 : 4)$  | $12 + 4 \cdot 7$ | $(61 - 29) : 8$ |
| $32 : 8 \cdot 9$ | $51 - 28 : 7$    | $(80 - 56) : 6$ |
- 78.**  $AB$  va  $CD$ ,  $AC$  va  $BD$  — to'g'ri to'rtburchakning qarama-qarshi tomonlari. Chizg'ich yordamida to'g'ri to'rtburchakning  $AB$  va  $CD$ ,  $BD$  va  $AC$  tomonlarini o'lchang va o'lchamlarini yozing. To'g'ri to'rtburchakning qarama-qarshi tomonlari teng.

**Esda tuting:**

$1 \text{ m} = 100 \text{ sm}$

$1 \text{ sm} = 10 \text{ mm}$

$10 \text{ mm} = 1 \text{ sm}$


$1 \text{ dm} = 10 \text{ sm}$





## BESHNI KO'PAYTIRISH VA 5 GA BO'LISH

79.  $5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5$



$$5 = 5 \cdot 1 = 5$$

$$5 + 5 = 5 \cdot 2 = 10$$

$$5 + 5 + 5 = 5 \cdot 3 = 15$$

$$5 + 5 + 5 + 5 = 5 \cdot 4 = 20$$

$$5 + 5 + 5 + 5 + 5 = 5 \cdot 5 = 25$$

$$5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5 = 5 \cdot 6 = 30$$

$$5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5 = 5 \cdot 7 = 35$$

$$5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5 = 5 \cdot 8 = 40$$

$$5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5 = 5 \cdot 9 = 45$$

$$5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5 = 5 \cdot 10 = 50$$

80.  $25 : 5$

$6 \cdot 5$

$30 : 5$

$30 : 6$

$7 \cdot 5$

$35 : 5$

$35 : 7$

$8 \cdot 5$

$40 : 5$

$40 : 8$

$9 \cdot 5$

$45 : 5$

$45 : 9$

81.  $6 \cdot 5 : 3$  |  $45 : 5 \cdot 4$  |  $(62 - 57) \cdot 7$  |  $70 - 40 : 8$

$5 \cdot 8 : 4$  |  $35 : 5 \cdot 3$  |  $(18 + 12) : 5$  |  $16 + 5 \cdot 9$

$5 \cdot 4 : 10$  |  $30 : 5 \cdot 4$  |  $(84 - 79) \cdot 5$  |  $67 - 45 : 5$



- 82.** 1) Korxonada 40 ta televizor ishlab chiqarildi. DVD magnitofon esa televizordan 5 marta kam ishlab chiqarildi. Hammasi bo'lib nechta DVD magnitofon ishlab chiqarildi?
- 2) Ustaxonada 40 ta televizor ta'mirlandi, DVD esa televizordan 5 ta kam ta'mirlandi. Hammasi bo'lib nechta DVD ta'mirlangan?

### SONLARNI TAQQOSLASHGA DOIR MASALALAR

- 83.** Koptok 2 ta, mashina 6 ta. Mashina koptokdan necha marta ko'p? Koptok mashinalardan necha marta kam?



$$6 : 2 = 3$$

Demak, mashina koptokdan 3 marta ko'p, koptok esa mashinadan 3 marta kam.

- 84.** Gulzorda 8 ta asalari va 2 ta kapalak uchib yuribdi. Asalarilar kapalaklardan necha marta ko'p? Kapalaklar asalarilardan necha marta kam?



- 85.** Oshxonada bir kunda 80 kg kartoshka va 8 kg sabzi ishlatildi. Kartoshka sabzidan qancha ko'p ishlatilgan?



86. Hovlida 4 ta o'rdak va 8 ta jo'ja yuribdi. Jo'jalar o'rdaklardan necha marta ko'p? O'rdaklar jo'jalardan necha marta kam?



87. Yulduzchalar o'rniga  $>$ ,  $<$  yoki  $=$  belgisini qo'ying:



$$5 \cdot 7 + 5 * 5 \cdot 8$$

$$45 : 5 * 36 : 4$$

$$4 \cdot 9 - 4 * 4 \cdot 7$$

$$24 : 8 * 24 : 6$$

88.  $18 + 5 \cdot 9$                        $(38 + 7) : 5$                        $18 + 5 \cdot 8$   
 $18 + 5 \cdot 7$                        $(73 - 38) : 7$                        $(16 + 24) : 8$   
 $1 \cdot 46$                        $2 \text{ m } 4 \text{ dm} = \dots \text{ dm}$   
 $9 : 9$                        $3 \text{ sm } 1 \text{ mm} = \dots \text{ mm}$   
 $7 \cdot 1$                        $4 \text{ dm } 5 \text{ sm} = \dots \text{ sm}$

89. Masalalarga oid tenglamalar tuzing va ularni yeching:  
 1) Qanday son 5 ga ko'paytirilsa, 40 hosil bo'ladi?

$$\square \cdot 5 = 40$$

- 2) 35 ni nechaga bo'lsak 7 hosil bo'ladi?  $35 : \square = 7$

- 3) Qanday sonni 5 ga bo'lsak 9 hosil bo'ladi?

$$\square : 5 = 9$$

90. Ikkita kesma chizing:  $AB = 10 \text{ sm}$ ,  $CD = 5 \text{ sm}$ .  $AB$  kesma  $CD$  kesmadan necha marta katta?  $CD$  kesma  $AB$  kesmadan necha marta kichik?

**Berilgan sonlardan biri ikkinchisidan necha marta katta yoki necha marta kichikligini bilish uchun katta sonni kichik songa bo'lish kerak.**



- 91.** 1) 15 soni 5 dan necha marta katta?  
 2) 45 soni 9 dan nechta ortiq?  
 3) 5 soni 45 dan necha marta kichik?  
 4) 16 soni 50 dan nechta kam?
- 92.** Kiyim magazinida bir kunda 24 ta kurtka, undan 6 ta ortiq palto sotildi. Nechta palto sotilgan?  
 24 ta kurtka, 6 ta palto ortiq.
- 93.** Namuna bo'yicha misollarni yeching:  $10 \cdot 5 = 50$

C	10	9	8	7
$C \cdot 5$	50			

R	20	25	30	40
$R : 5$				

- 94.** Hisoblamasdan natijasi bir xil misollarni toping va ularni hisoblab tekshiring.

$4 \cdot 7$	$9 \cdot 3$	$5 \cdot 7 + 5$	$3 \cdot 8 + 3$
$8 \cdot 5$	$7 \cdot 4$	$3 \cdot 10 - 3$	$7 \cdot 3 + 7$
$3 \cdot 9$	$5 \cdot 8$	$5 \cdot 7 - 7$	$5 \cdot 9 - 5$

- 95.** Chizmada nechta uchburchak bor?  
 Nechta to'rtburchak bor? Nechta kvadrat bor?



### QO'SHIMCHA MASHQLAR

- 96.**  $85 : 85 \cdot 54$        $49 - 49$        $0 + 62$   
 $35 : 35$        $54 - 54$        $54 + 0$
- 97.** Juft sonlarni qo'shishga doir 4 ta misol, toq sonlarni ayirishga doir 4 ta misol tuzing va yeching.





98. Noma'lum sonlarni toping:

$$7 \cdot x = 35$$

$$k - 17 = 17$$

$$50 - b = 4$$

$$8 : a = 4$$

$$b + 14 = 40$$

$$b : 4 = 9$$

$$b \cdot 3 = 27$$

$$c \cdot 10 = 30$$

$$35 + R = 35$$

$$c - 6 = 49$$

$$24 \cdot b = 24$$

$$24 : x = 3$$

99. Yulduzchalar o'rniga  $>$ ,  $<$  yoki  $=$  belgisini qo'ying:



$$8 \cdot (3 + 4) * 8 \cdot 3 + 4$$

$$12 : (2 + 4) * 12 : 2 + 4$$

$$12 : (2 + 4) * 12 : 2 + 4$$

$$45 - 10 + 6 * 45 - (10 + 6)$$

100. Kataklarni to'ldiring:

A	82	80	66	58
$18 + a$				

R	19	21	25	27
$60 - R$				

C	1	3	4	6
$10 \cdot c$				

B	40	32	24	16
$b : 4$				

101. Tarvuzning massasi 4 kg, oshqovoq undan 3 marta og'ir. Oshqovoqning massasi qancha?




102. Maktab bog'i uchun 50 ta uzum ko'chati keltirildi. Qatorlarning har biriga 10 tadan ko'chat ekildi. Necha qatorga uzum ekilgan?

103. Bir bankaning sig'imi 3 litr. 6 litr, 12, 18, 24 litr meva sharbatini quyish uchun nechta shunday banka kerak? Yechilishini jadvalga yozing.



104. Do'konga har birida 10 kilogrammdan 8 yashik nok keltirildi. Tushgacha 54 kilogramm nok sotildi. Necha kg nok qoldi?



105. Ona 35 yoshda, qizi 5 yoshda. Onaning yoshi qizining yoshidan necha marta katta?
106. 24 kg guruchni paketlarga solish kerak. Agar shu guruch 3 ta bir xil paketga solinsa, 1 paket guruch og'irligi qancha keladi? 4 paketga solinsa-chi? 6 paketga solinsa-chi? 8 paketga solinsa-chi?
107. Olma solingan yashik 27 kg, uzum solingan yashik undan 8 marta yengil. Uzumli yashik necha kg keladi?
108. Bir to'pda 25 m rangli kleyonka bor. 1 ta stolga 3 m kleyonka ishlatilsa, to'pdagi kleyonka 8 ta stolga yetadimi?
109. Uyni ta'mirlash uchun har biri 4 kg dan 6 banka bo'yoq keltirildi, yana 8 banka keltirilishi kerak. Uyni ta'mirlash uchun hammasi bo'lib necha kg bo'yoq kerak bo'ladi?
110. Savatning og'irligi 2 kg, undagi anor savatdan 8 marta og'ir. Savat ichidagi anor qancha kilogramm?
111. Xurmo daraxtining balandligi 3 m, terak undan 2 marta baland. Terakning balandligi necha metr?



## OLTINI KO'PAYTIRISH VA 6 GA BO'LISH

**112.**  $6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6$



$$6 = 6 \cdot 1 = 6$$

$$6 + 6 = 6 \cdot 2 = 12$$

$$6 + 6 + 6 = 6 \cdot 3 = 18$$

$$6 + 6 + 6 + 6 = 6 \cdot 4 = 24$$

$$6 + 6 + 6 + 6 + 6 = 6 \cdot 5 = 30$$

$$6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 = 6 \cdot 6 = 36$$

$$6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 = 6 \cdot 7 = 42$$

$$6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 = 6 \cdot 8 = 48$$

$$6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 = 6 \cdot 9 = 54$$

$$6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 = 6 \cdot 10 = 60$$

**113.**  $36 : 6$

$$7 \cdot 6$$

$$42 : 6$$

$$42 : 7$$

$$8 \cdot 6$$

$$48 : 6$$

$$48 : 8$$

$$9 \cdot 6$$

$$54 : 6$$

$$54 : 9$$

**114.**  $42 : 7 \cdot 8$  |  $70 - 8 \cdot 6$  |  $48 : 8 \cdot 5$  |  $54 : 6 + 17$

$$6 \cdot 6 : 9$$

$$58 + 7 \cdot 6$$

$$24 : 6 \cdot 8$$

$$8 \cdot 6 - 29$$

$$54 : 9 \cdot 7$$

$$83 - 6 \cdot 9$$

$$54 : 6 \cdot 5$$

$$42 : 6 + 38$$

**115.** Shkafda 6 ta choynak, undan 3 marta ko'p piyola bor. Shkafda nechta piyola bor?

**116.** O'quvchilar shanbalikda 8 tupdan 3 qator terak daraxti, 9 tupdan 4 qator archa daraxti ekishdi. O'quvchilar hammasi bo'lib necha tup daraxt ekishgan?







**125.** Jadvallardan foydalanib ifodalarni yozing va misollarni yeching.

Qo'shiluvchi	3	14	57
Qo'shiluvchi	8	69	42

Kamayuvchi	9	20	62
Ayriluvchi	6	11	62

- 126.**  $19 : 1$                        $1 \cdot 24$                        $16 : 1$   
 $82 - 9 \cdot 6$                        $8 \cdot (45 - 18)$                        $54 : 9 + 36 : 6$   
 $69 + 42 : 7$                        $32 : (40 - 32)$                        $6 \cdot 7 - 3 \cdot 6$   
 $52 - 6 \cdot 6$                        $6 \cdot (70 - 65)$                        $32 : 4 - 35 : 5$

**127.** Otlar 6 ta, ular tuyalardan 2 marta kam. Tuyalar otlardan necha marta ko'p? Tuyalar nechta?

**128.** «Neksiya» mashinalari 4 ta, «Matiz» undan 3 marta ko'p. «Neksiya» «Matiz»dan necha marta kam? Yengil mashinalarning soni nechta?



**129.** Masalalar shartlarining rasmini chizing va ularni yeching:

1) Qizcha mehnat darsida 6 ta qizil gul yasadi, bu sariq guldan ikki marta kam. Qizcha nechta sariq gul yasagan?

2) Qutichada 8 dona rangli qalam bor, ular qora qalamlardan 2 marta ko'p. Qutichada necha dona qora qalam bor?



**130.** Jadvallardan foydalanib ifodalarni yozing va misollarni yeching.

Ko'paytuvchi	1	6	5
Ko'paytuvchi	8	9	10

Bo'linuvchi	28	35	54
Bo'luvchi	4	7	9

**131.** 1) Handalakning og'irligi 1 kg, qovun undan 5 marta og'ir. Handalak qovundan necha kg yengil?



**132.**  $50 + 9 \cdot 3$

50 ga 9 bilan 3 ning ko'paytmasini qo'shamiz. Hosil bo'lgan ifodani shunday o'qish mumkin: bu ifoda yig'indi; birinchi qo'shiluvchi 50, ikkinchi qo'shiluvchi esa 9 va 3 ning ko'paytmasi bilan ifodalangan.

50 — 1- qo'shiluvchi

$9 \cdot 3$  — 2- qo'shiluvchi

**133.**  $70 - 12 : 4$

70 dan 12 bilan 4 ning bo'linmasini ayiramiz:

70 — kamayuvchi

$12 : 4$  — ayriluvchi

Oxirgi amal ayirish, demak, bu ifoda ayirma; kamayuvchi 70, ayriluvchi esa 12 va 4 ning bo'linmasi bilan ifodalangan.

**134.** Birinchi qo'shiluvchining tagiga bir chiziq, ikkinchisining tagiga ikki chiziq chizing. Amallarni bajaring:

$$38 + 24 : 3$$

$$26 + (48 - 36)$$

$$8 \cdot 6 + 34$$

$$18 + 9 \cdot 6$$



**135.** Amallarni bajaring:

$$70 - 8 \cdot 6$$

$$6 \cdot (31 - 22)$$

$$(70 - 28) : 7$$

$$18 : (31 - 25)$$

**136.** 1) Ikkita kesma chizing: birinchisining uzunligi 6 sm, ikkinchisi undan 2 marta uzun bo'lsin. Ikkinchi kesmaning uzunligini toping.

2) Ikkita kesma chizing; birinchisining uzunligi 6 sm, u ikkinchisidan 2 marta uzun bo'lsin. Ikkinchi kesmaning uzunligini toping.

**137.** Bir uyda 10 ta deraza bo'lib, ular ikkinchi uyda-gi derazalardan 5 marta kam. Ikkinchi uyda nech-ta deraza bor?



**138.** Kitob 54 bet, bloknot 9 bet. Bloknotdagi betlar kitobdagi betlardan necha marta kam?



**139.** Noma'lum sonni toping:

$$R - 17 = 28$$

$$x : 9 = 6$$

$$45 : c = 5$$

$$45 : c = 5$$

$$21 - a = 9$$

$$50 : b = 10$$

**140.**  $7 \cdot 6 - 36 : 4$

$$50 : 10 + 4 \cdot 6$$

$$7 \cdot 5 - 18 : 2$$

$$54 : 6 + 3 \cdot 8$$

$$9 \cdot 5 - 32 : 4$$

$$28 : 4 + 3 \cdot 7$$

$$100 - 6 \cdot 6$$

$$90 - 9 \cdot 6$$


$$32 : 8 + 20 : 5$$

**141.** Bir to'p adras gazlamadan ikki xaridorga 7 m dan sotilgandan keyin 6 m gazlama qoldi. To'pda necha metr gazlama bo'lgan? Masalaga mos rasm chizing va uni yeching.



## YETTINI KO'PAYTIRISH VA 7 GA BO'LISH

142.  $7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7$



$$7 \cdot 10 = 70$$

$$7 = 7 \cdot 1 = 7$$

$$7 + 7 = 7 \cdot 2 = 14$$

$$7 + 7 + 7 = 7 \cdot 3 = 21$$

$$7 + 7 + 7 + 7 = 7 \cdot 4 = 28$$

$$7 + 7 + 7 + 7 + 7 = 7 \cdot 5 = 35$$

$$7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 = 7 \cdot 6 = 42$$

$$7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 = 7 \cdot 7 = 49$$

$$7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 = 7 \cdot 8 = 56$$

$$7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 = 7 \cdot 9 = 63$$

$$7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 + 7 = 7 \cdot 10 = 70$$

143.  $49 : 7$

$$8 \cdot 7$$

$$56 : 7$$

$$56 : 8$$

$$9 \cdot 7$$

$$63 : 7$$

$$63 : 9$$

144.  $7 \cdot 7 - 34$

$$49 : 7 \cdot 8$$

$$27 : 3 \cdot 7$$

$$80 - 56 : 7$$

$$8 \cdot 7 - 28$$

$$63 : 9 \cdot 6$$

$$36 : 9 \cdot 6$$

$$80 - 63 : 7$$

$$9 \cdot 7 - 54$$

$$56 : 8 \cdot 4$$

$$42 : 6 \cdot 8$$

$$80 - 70 : 7$$

145. Oshxonaga 18 ta stul qo'yilgan. Ular stollardan 6 marta ko'p. Stollar nechta?

146. Singil 8 yoshda bo'lib, akasidan 2 marta yosh. Akasi necha yoshda?





- 147.** Krujkalarni 6 tadan to'plab, 36 ta krujka qutilarga solindi. Krujkalar nechta qutiga solingan?



- 148.** Ifodalarni yozing va amallarni bajaring:
- 1) Birinchi qo'shiluvchi 57, ikkinchisi — 4 bilan 9 ning ko'paytmasi.
  - 2) Bo'linuvchi 27, bo'luvchi 40 va 31 sonlarining ayirmasi.
  - 3) Kamayuvchi 85, ayriluvchi 10 va 3 sonlarining ko'paytmasi.
- 149.** Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzing va uni yeching.

Sig'imi	Soni	Jami
5 l	7	?
3 l	4	

- 150.**  $c$  – 19 ifodaning qiymatini hisoblang, agar  $c$ : 19; 22; 34; 56; 69; 90 bo'lsa.
- 151.** Amallarni o'qing va bajaring:
- |                  |                  |                  |
|------------------|------------------|------------------|
| $70 - 9 \cdot 7$ | $23 + (49 - 12)$ | $65 + 49 : 7$    |
| $25 : 3 + 18$    | $72 - (46 + 15)$ | $8 \cdot 7 - 56$ |
| $67 - 54 : 6$    | $84 - (30 - 12)$ | $42 : 7 - 6$     |

### SONNI YIG'INDIGA KO'PAYTIRISH

- 152.**  $4 \cdot (3 + 2)$
- 1) 4 ni qavs ichidagi yig'indiga ko'paytirish kerak:  
 $4 \cdot (3 + 2) = 4 \cdot 5 = 20$



2) Sonni har bir qo'shiluvchiga ko'paytirish va chiqqan natijalarni qo'shish mumkin:

$$4 \cdot (3 + 2) = 4 \cdot 3 + 4 \cdot 2 = 12 + 8 = 20$$

**153.** Yechishning turli usullarini tushuntiring:

1)  $7 \cdot (6 + 4) = 7 \cdot 10 = 70$

2)  $7 \cdot (6 + 4) = 7 \cdot 6 + 7 \cdot 4 = 42 + 28 = 70$

**154.** Natijalarni qulay usul bilan hisoblang.

$8 \cdot (2 + 1)$

$9 \cdot (3 + 7)$

$4 \cdot (5 + 10)$

**155.** 7, 14, 21, 28, 35, 42, 49, 56 sonlar qatoridan  $R$  harfining  $R : 7 < 5$  tengsizlik to'g'ri bo'ladigan ifodasini tanlab oling.

**156.**  $7 \cdot 7 + 8 \cdot 3$

$60 - 6 \cdot 7$

$49 : 7 + 63 : 9$

$6 \cdot 7 - 1 \cdot 7$

$72 - 7 \cdot 7$

$64 : 8 + 35 : 7$

$8 \cdot 7 + 1 \cdot 7$

$36 - 3 \cdot 9$

$28 : 4 + 49 : 7$

**157.** Masalalarni turli usullar bilan yeching:

1) Maktab zalini bezatish uchun har birida 10 tadan rangli chiroqlar bo'lgan 4 shoda olindi. 4 shodada hammasi bo'lib nechta chiroq bor?



2) 5 ta bola maktab zali devorlariga 7 tadan shar osdi. Bolalar maktab zaliga hammasi bo'lib nechta shar osganlar?



**158.** Qulay usul bilan hisoblang:

$5 \cdot (10 + 3)$

$7 \cdot (6 + 4)$

$9 \cdot (5 + 4)$

**159.** 10 dan katta, ammo 20 dan kichik hamma juft sonlarni, so'ngra hamma toq sonlarni aytib bering.



**160.** Jadvallardan foydalanib, amallarni bajaring.

Qo'shiluvchi	15	$7 \cdot 5$	32	$54 : 9$	16
Qo'shiluvchi	$90 - 38$	18	$9 \cdot 4$	67	$90 : 10$
Yig'indi					

$$15 + (90 - 38) = 15 + 52 = 67$$

**161.** 1) 24 m uzunlikdagi bir to'p gazlamadan 8 ta bir xil kurtka tikildi. Bitta kurtka tikish uchun necha metr gazlama kerak bo'ladi?



**162.**  $(89 - 71) : 9$        $6 \cdot (10 + 5)$        $90 : 9 \cdot 6$   
 $(26 + 28) : 6$        $4 \cdot (7 + 3)$        $27 : 3 \cdot 6$   
 $(80 - 48) : 8$        $6 \cdot (5 + 2)$        $20 : 4 \cdot 9$   
 $100 - 76$        $100 - 77$        $100 - 78$

**163.** Tenglamalarning yechilishini tushuntir:

$$68 - \dots = 15 + 3$$

Tekshirish:

$$68 - \dots = 18$$

$$68 - 50 = 18$$

$$\dots = 68 - 18$$

$$15 + 3 = 18$$

$$\dots = 50$$

$$\dots + 14 = 7 \cdot 7$$

Tekshirish:

$$\dots + 14 = 49$$

$$35 + 14 = 49$$


$$\dots = 49 - 14$$

$$7 \cdot 7 = 49$$

$$\dots = 35$$



- 164.** 12 kalava jun ipdan 3 ta bir xil bolalar sviteri to'qiladi. 1 ta sviter to'qish uchun nechta kalava jun ipi kerak?



- 165.** Amallarni bajaring:

$5 \cdot (10 + 4)$	$42 : 7 + 39$	$54 : 6 \cdot 7$	$91 - 48$
$7 \cdot (2 + 10)$	$81 - 24 : 3$	$4 \cdot 9 : 6$	$85 - 48$
$6 \cdot (10 + 5)$	$49 : 7 + 18$	$56 : 8 \cdot 6$	$80 - 48$

- 166.** Do'kondan har biri 6 m dan 9 bo'lak atlas mato sotib olindi. Jami necha metr gazlama sotib olingan? Kerakli belgini qo'ying:

- 167.** Yulduzchalar o'rniga  $<$ ,  $>$  yoki  $=$  belgisini qo'ying:



$8 \cdot (5 + 2) * 8 \cdot 5 + 8$	$7 \cdot (4 + 4) * 7 \cdot 4 + 7 \cdot 5$
$36 : 9 * 36 : 4$	$54 : 9 * 60 : 6$

- 168.** 1) Polizdan 60 dona tarvuz uzildi. Tarvuzlar hammasi 10 tadan qilib to'plandi. Tarvuzlar necha to'pga to'plangan?

2)  $(9 + 7) : 2$  ifoda bo'yicha shunga o'xshash masala tuzing.

- 169.** 7, 2, 9, 4, 11, 10, 6, 8, 3, 5. Bu qatorning har bir toq sonini 8 taga orttiring. Har bir juft sonini 9 taga orttiring. Natijada qanday sonlar hosil bo'ladi?

- 170.** Yulduzchalar o'rniga  $>$ ,  $<$  yoki  $=$  belgisini qo'ying:




$8 \cdot 6 * 8 \cdot 7$	$10 : 2 * 8 : 2$
$8 : 2 * 9 \cdot 2$	$12 : 2 * 12 : 4$
$5 \cdot 4 * 3 \cdot 5$	$6 \cdot 2 * 6 : 2$





## SAKKIZNI, TO‘QQIZNI KO‘PAYTIRISH VA 8 GA, 9 GA BO‘LISH

**171.**  $8 + 8 + 8 + 8 + 8 + 8 + 8 + 8 + 8 + 8 = 80$



$$8 \cdot 10 = 80$$

$$8 = 8 \cdot 1 = 8$$

$$8 + 8 = 8 \cdot 2 = 16$$

$$8 + 8 + 8 = 8 \cdot 3 = 24$$

$$8 + 8 + 8 + 8 = 8 \cdot 4 = 32$$

$$8 + 8 + 8 + 8 + 8 = 8 \cdot 5 = 40$$

$$8 + 8 + 8 + 8 + 8 + 8 = 8 \cdot 6 = 48$$


$$8 + 8 + 8 + 8 + 8 + 8 + 8 = 8 \cdot 7 = 56$$

$$8 + 8 + 8 + 8 + 8 + 8 + 8 + 8 = 8 \cdot 8 = 64$$

$$8 + 8 + 8 + 8 + 8 + 8 + 8 + 8 + 8 = 8 \cdot 9 = 72$$

$$8 + 8 + 8 + 8 + 8 + 8 + 8 + 8 + 8 + 8 = 8 \cdot 10 = 80$$

**172.**  $9 + 9 + 9 + 9 + 9 + 9 + 9 + 9 + 9 + 9 = 90$



$$9 \cdot 10 = 90$$

$$9 = 9 \cdot 1 = 9$$

$$9 + 9 = 9 \cdot 2 = 18$$

$$9 + 9 + 9 = 9 \cdot 3 = 27$$

$$9 + 9 + 9 + 9 = 9 \cdot 4 = 36$$

$$9 + 9 + 9 + 9 + 9 = 9 \cdot 5 = 45$$



$$9 + 9 + 9 + 9 + 9 + 9 = 9 \cdot 6 = 54$$

$$9 + 9 + 9 + 9 + 9 + 9 + 9 = 9 \cdot 7 = 63$$

$$9 + 9 + 9 + 9 + 9 + 9 + 9 + 9 = 9 \cdot 8 = 72$$

$$9 + 9 + 9 + 9 + 9 + 9 + 9 + 9 + 9 = 9 \cdot 9 = 81$$

$$9 + 9 + 9 + 9 + 9 + 9 + 9 + 9 + 9 + 9 = 9 \cdot 10 = 90$$

**173.**  $8 \cdot 8 = 64$        $9 \cdot 9 = 81$        $64 : 8$        $81 : 9$   
 $8 \cdot 9 = 72$        $9 \cdot 8$        $72 : 8$        $72 : 9$

**174.**  $100 - 8 \cdot 8$        $54 + 72 : 9$        $56 : 7 \cdot 9$        $81 : 9 - 9$   
 $100 - 8 \cdot 9$        $39 + 64 : 8$        $35 : 5 \cdot 8$        $64 : 8 - 8$   
 $100 - 9 \cdot 9$        $46 + 81 : 9$        $42 : 7 \cdot 9$        $49 : 7 - 7$

**175.** Oshxonaga har biri 3 kg dan 8 savat qo'ziqorin sotib olindi. Necha kg qo'ziqorin sotib olingan?



3 kg

**176.** Ifodalarni yozing va yeching:

Kamayuchi	42	$56 : 7$	53	$60 - 27$	30
Ayiriluvchi	$3 \cdot 8$	0	$81 : 9$	18	$40 - 26$

**177.** Tenglamalarni yeching:

$$x + 37 = 90 - 15 \quad 43 - a = 4 \cdot 7 \quad 8 \cdot R = 34 + 38$$

**178.** Ikkita bir xil chelakka 18 litr sut quyildi. 32 litr sut nechta chelakga quyiladi?



— ? chelak

18 l

36 l

**179.** Daftaringizga tomoni 3 sm bo'lgan kvadrat chizing. Bu kvadratning perimetrini toping.



- 180.** 12 kg murabbo 6 ta bankaga teng bo'lib solindi. 24 kg murabboni solish uchun nechta shunday banka kerak?



- 181.** 1) 64 soni 8 dan necha marta katta?  
 2) 9 soni 72 dan necha marta kichik?  
 3) 42 soni 6 dan nechta ortiq?

- 182.**  $81 : 9 + 64 : 8$                        $85 \text{ sm} = \dots \text{ dm} \dots \text{ sm}$   
 $49 : 7 + 72 : 8$                          $39 \text{ mm} = \dots \text{ sm} \dots \text{ mm}$   
 $42 : 6 + 36 : 6$                           $53 \text{ dm} = \dots \text{ m} \dots \text{ dm}$

- 183.**  $ABC$  uchburchakning tomonlarini chizg'ich yordamida taqqoslang, so'ngra  $MOK$  uchburchakning tomonlarini taqqoslang. Uchburchakning barcha tomonlari teng bo'lishi mumkinmi?




- 184.** Tomonlari 3 sm 5 mm va 5 sm 5 mm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing. Uni harflar bilan belgilang va qarama-qarshi tomonlarini ayting.
- 185.** Maktab bog'iga o'tqazish uchun gilos ko'chatlari keltirildi. Ko'chatlar 2 qatorga 10 tupdan o'tqazildi. Maktab bog'iga necha tup gilos ko'chati keltirilgan?



## PERIMETR

**Uchburchak, to'rtburchak, beshburchak yoki boshqa har qanday ko'pburchak tomonlarining yig'indisi uning perimetri deb ataladi.**

- 186.**  $CDK$  uchburchakning va  $ABCD$  to'rtburchakning perimetrini toping.



- 187.** Uchburchakning bir tomoni 8 sm, ikkinchisi 6 sm, uchinchisi 10 sm bo'lsa, uning perimetrini toping.
- 188.** 1) 27 l sharbat 9 bankaga teng qilib quyildi. 18 l sharbat uchun nechta banka kerak bo'ladi?  
2)  $12 : (15 : 5)$  ifoda bo'yicha masala tuzing.
- 189.** Ifodalarni yozing va misollarni yeching:  
1) Bo'linuvchi 63, bo'luvchi 51 va 42 ning ayirmasiga teng.  
2) Birinchi ko'paytuvchi 93 va 85 ning ayirmasiga, ikkinchi ko'paytuvchi 7 ga teng.

- 190.** Yulduzchalar o'rniga  $>$ ,  $<$  yoki  $=$  belgisini qo'ying:
- |                         |     |                   |                 |     |              |
|-------------------------|-----|-------------------|-----------------|-----|--------------|
| $6 \cdot 5 + 6 \cdot 2$ | $*$ | $6 \cdot (5 + 2)$ | $9 \cdot 7 + 9$ | $*$ | $9 \cdot 10$ |
| $4 \cdot (10 + 8)$      | $*$ | $4 \cdot 10 + 8$  | $9 \cdot 8 + 8$ | $*$ | $9 \cdot 9$  |

- 191.**  $60 - 7 \cdot 8$                        $(57 - 48) \cdot 9$                        $42 : 7 + 3 \cdot 9$   
 $(34 + 22) : 8$                        $18 : 2 + 8 \cdot 8$                        $54 : 9 + 8 \cdot 8$





**192.** Tenglamalarni yechishni davom ettiring.

1)  $(53 + 9) - x = 42$

$62 - x = 42$

...

2)  $a - (30 - 14) = 23$

$a - 16 = 23$

...

**193.**  $x - (40 + 5) = 50$

$b + (36 + 9) = 80$

$(70 - 18) - a = 12$

...

**194.** Chelakda 8 l suv bor, bidonchada undan 4 marta kam. Bidonchada necha litr suv bor?



8 l



- ? 4 marta kam

**195.** Hisoblang va yodda tuting!

2 · 2							
3 · 2	3 · 3						
4 · 2	4 · 3	4 · 4					
5 · 2	5 · 3	5 · 4	5 · 5				
6 · 2	6 · 3	6 · 4	6 · 5	6 · 6			
7 · 2	7 · 3	7 · 4	7 · 5	7 · 6	7 · 7		
8 · 2	8 · 3	8 · 4	8 · 5	8 · 6	8 · 7	8 · 8	
9 · 2	9 · 3	9 · 4	9 · 5	9 · 6	9 · 7	9 · 8	9 · 9

**196.** Perimetri 16 sm ga teng bo'lgan kvadrat chizing.

**197.**  $9 \cdot 9 - 9 \cdot 4$

$(42 + 18) : 6$

$50 - 4 \cdot 7$

$8 \cdot 8 - 8 \cdot 3$

$(54 - 46) \cdot 9$

$42 - 9 \cdot 3$

$7 \cdot 7 - 7 \cdot 2$

$(17 + 46) : 9$

$73 - 8 \cdot 9$

**198.** Uchburchakning perimetri 12 sm, bir tomoni 5 sm, ikkinchi tomoni 3 sm ga teng. Uchinchi tomonning uzunligini toping.



- 199.** 1) Ko'paytirish jadvalidan foydalanib  $4 \cdot 7$ ,  $7 \cdot 9$ ,  $8 \cdot 6$ ,  $2 \cdot 9$ ,  $6 \cdot 5$ ,  $3 \cdot 8$  ko'paytmalarini toping.  
 2) Ko'paytirish jadvalidan foydalanib ko'paytirishning o'rin almashtirish xossasini tekshiring.  
 3) Ko'paytirish jadvalidan foydalanib bo'linmani toping:  
 $28 : 7$ ,  $24 : 6$ ,  $63 : 7$ ,  $45 : 9$ ,  $56 : 8$

- 200.** 1) Komil 10 ta baliq tutdi, bu Jalil tutgan baliqlardan 2 marta kam. Ikkala bola nechta baliq tutgan?  
 2) Komil 10 ta baliq tutdi, bu Jalil tutgan baliqlardan 2 marta ko'p. Ikkala bola nechta baliq tutgan?

**201.**  $(40 - 25) + x = 33$   $(52 - 11) - a = 18$

**202.** Amallarni bajaring:

$5 \cdot 7 + 5 \cdot 3$	$7 \cdot (53 - 45)$	$90 - 4 \cdot 7 + 15$
$8 \cdot 2 + 8 \cdot 3$	$(31 + 33) : 8$	$80 - 9 \cdot 7 - 17$
$9 \cdot 4 + 9 \cdot 6$	$9 \cdot (25 - 16)$	$40 - 5 \cdot 8 + 19$

## QO'SHIMCHA MASHQLAR

**203.** Amallarni bajaring:

1) $6 \cdot 6 + 6$	$48 : 8 \cdot 7$	$(24 + 24) : 6$
$6 \cdot 7 + 6$	$54 : 9 \cdot 8$	$(17 + 19) : 6$
$6 \cdot 8 + 6$	$36 : 6 \cdot 9$	$(28 + 26) : 6$
2) $7 \cdot 7 - 7$	$56 : 8 \cdot 7$	$(95 - 32) : 7$
$7 \cdot 8 - 7$	$49 : 7 \cdot 9$	$(100 - 44) : 7$
$7 \cdot 9 - 7$	$35 : 7 \cdot 9$	$(91 - 42) : 7$
3) $81 : 9 \cdot 8$	$6 \cdot 6 - 5 \cdot 5$	$(23 + 41) : 8$
$64 : 8 \cdot 7$	$7 \cdot 7 - 6 \cdot 6$	$(39 + 42) : 9$
$72 : 9 \cdot 6$	$8 \cdot 8 - 7 \cdot 7$	$(53 + 19) : 8$



4)	$24 : 6 \cdot 9$	$29 + 42 : 7 \cdot 3$	$(91 - 28) : 7$
	$45 : 5 \cdot 3$	$73 + 54 : 9 \cdot 3$	$(37 - 19) : 9$
	$30 : 6 \cdot 9$	$26 + 56 : 7 \cdot 3$	$(48 - 32) : 8$
5)	$10 \cdot 2 : 5$	$40 : 5 \cdot 4$	$6 \cdot (72 - 63)$
	$10 \cdot 2 : 5$	$18 : 2 \cdot 7$	$7 \cdot (56 - 47)$
	$10 : 10 \cdot 8$	$60 : 10 \cdot 9$	$9 \cdot (45 - 37)$

**204.** Ifodalarni yozing va amallarni bajaring:

1) Birinchi qo'shiluvchi 39, ikkinchi qo'shiluvchi 6 va 7 ning ko'paytmasidan iborat.

2) Kamayuvchi 93, ayiriluvchi 8 va 8 ning ko'paytmasidan iborat.

3) Birinchi qo'shiluvchi 29, ikkinchi qo'shiluvchi 42 va 7 ning bo'linmasidan iborat.

6) 7 va 6 hamda 7 va 4 ning ko'paytmalari yig'indisini toping.

**205.** Ajoyib kvadratlarni to'ldiring.

28	20	12
		22

21		23
	24	
		27

	23	
	19	
	15	20

**206.** Ko'paytmasi 24, 36, 40, 45, 50, 60 ga teng bo'lgan sonlarni ayting.

**207.** O'nta tugma 90 so'm turadi. 36 so'mga shunday tugmadan nechta olish mumkin?

**208.** Tomoni 5 sm bo'lgan kvadrat chizing. Kvadratning perimetrini toping.

**209.** Kvadratning perimetri 36 sm. Kvadrat tomonlari uzunligi necha sm bo'ladi?



## YIG'INDINI SONGA KO'PAYTIRISH

- 210.** Uch o'quvchining har biri bayramga 6 tadan hayvonlar niqobi, 4 tadan qushlar niqobi yasashdi. O'quvchilar hammasi bo'lib nechta niqob yasashgan? Bu masalani ikki usul bilan yechish mumkin. Har bir usulni tushuntiring.

1-usul:  $(6 + 4) \cdot 3 = 10 \cdot 3 = 30$  (n)

Javob: 30 ta niqob.

2-usul:  $6 \cdot 3 + 4 \cdot 3 = 18 + 12 = 30$  (n)

Javob: 30 ta niqob.

- 211.**  $(5 + 2) \cdot 9$  ni ikki usul bilan yeching:

1) Avval qavsdagi yig'indini hisoblang, so'ngra uni songa ko'paytiring.

2) Har bir qo'shiluvchini songa ko'paytiring va natijalarni qo'shing, javoblarni taqqoslang.

**212.**  $(2 + 8) \cdot 8$                        $(8 + 1) \cdot 5$                        $(10 + 2) \cdot 8$

$(10 + 9) \cdot 4$                        $(9 + 1) \cdot 7$                        $(6 + 4) \cdot 10$

$(30 + 4) \cdot 6$                        $(6 + 4) \cdot 7$                        $(10 + 4) \cdot 7$

- 213.** 1) Oshxona uchun 8 ta bir xil paketda 24 kg un olindi. Bir kunda 5 paket un ishlatildi. Necha kg un ishlatilgan?



24 kg

- 2) Oshxona uchun 8 ta bir xil paketda 24 kg un olindi. Bir kunda 15 kg un ishlatildi. Necha paket un ishlatilgan?





**214.** Ko'paytmasi 12 ga teng, bo'linmasi 12 ga teng bo'lgan ko'paytirish va bo'lishga doir bir nechta misollar tuzing va yeching.

$$\square \cdot \square = 12$$

$$\square : \square = 12$$

$$\square \cdot \square = 12$$

$$\square : \square = 12$$

**215.** 1)  $(4 + 3) \cdot 2$  ifoda bo'yicha masala tuzing;  
2) bu masalani boshqacha usul bilan yeching.

**216.** 4 ta divanni qoplash uchun 16 m gazlama sarflandi. 20 m gazlamadan nechta shunday divanni qoplash mumkin?



16 m

- ? ta ko'ylak



20 m

**217.**  $7 \cdot 2 + 7 \cdot 8$        $10 \cdot 2 + 10 \cdot 3$        $8 \cdot 9 - 48$   
 $4 \cdot 6 + 6 \cdot 6$        $2 \cdot 10 + 3 \cdot 10$        $56 - 7 \cdot 6$

**218.** Sonni ayting:

Bitta o'nlik, sakkizta birlik.

Ikkita o'nlik, uchta birlik.

Ikkita o'nlik, bitta birlik.

To'rtta o'nlik, uchta birlik.

**219.** Ushbu sonlarda nechta o'nlik va nechta birlik bor?  
12, 32, 17, 18, 41, 24.

**220.** Archani 2 qator qilib chizing, har bir qatorda 4 tadan archa bo'lsin. 2 qator majnuntolni chizing, har bir qatorda 4 tadan majnuntol bo'lsin. Yechimini misollar bilan yozing.



**221.** Misolni turli xil usullar bilan yechish mumkin:

1)  $(4 + 2) \cdot 3 = 6 \cdot 3 = 18$

2)  $(4 + 2) \cdot 3 = 4 \cdot 3 + 2 \cdot 3 = 12 + 6 = 18$

**222.** Mashina va qo'g'irchoqlarni ifoda bo'yicha chizing:

$(2 + 3) \cdot 2$

**223.** Qulay usul bilan qo'paytiring

$(2 + 8) \cdot 4$

$(1 + 7) \cdot 2$

$(6 + 4) \cdot 5$

$(1 + 3) \cdot 5$

$(7 + 4) \cdot 6$

$(3 + 7) \cdot 8$

**224.** Yulduzchalar o'rniga  $>$ ,  $<$  yoki  $=$  belgisini qo'ying:

$(2 + 4) \cdot 2 * (2 + 4) \cdot 3$

$(1 + 3) \cdot 4 * (1 + 3) \cdot 6$

$(7 + 2) \cdot 3 * (4 + 5) \cdot 3$

$(5 + 4) \cdot 4 * (5 + 4) \cdot 2$



## NOLNI KO'PAYTIRISH VA BO'LISH

**225.** 1) Ko'paytmani bir xil qo'shiluvchilar yig'indisiga almashtiring va yeching.

$3 \cdot 4$

$12 \cdot 3$

$0 \cdot 2$

$0 \cdot 6$

$0 \cdot 5$

2) Yig'indining hamma qo'shiluvchilari nolga teng bo'lsa, yig'indi nimaga teng bo'ladi?

$0 + 0 + 0 + \dots + 0 = 0$

**Nolni har qanday songa ko'paytirilsa nol hosil bo'ladi:  $0 \cdot b = 0$ .**

**226.**  $0 : 6$ ?

Qanday sonni 6 ga ko'paytirilsa nol hosil bo'ladi?

$0 \cdot 6 = 0$ , demak,  $0 : 6 = 0$ .

6 ni boshqa har qanday son bilan almashtiring. Shunday muhokama qilib, javobda yana 0 hosil qilasiz?



**Nolni har qanday songa bo'lganda nol hosil bo'ladi:  $0 : b = 0$ .**

**227.**  $8 \cdot 9$        $14 : 7$        $0 \cdot 10$        $(67 - 67) \cdot 15$   
 $0 \cdot 6$        $0 : 3$        $0 : 5$        $0 \cdot (24 + 39)$

**228.** To'g'ri to'rtburchak shakldagi joy taxta devor bilan aylantirib o'rab olindi. Agar joyning bo'yi 6 m, eni 4 m, bitta taxta devorning uzunligi 2 m bo'lsa, bunga nechta taxta devor kerak? Masala bo'yicha ifoda tuzing va uni yeching.

**229.** Berilgan ifoda bo'yicha masala tuzing:  $(8 + 2) \cdot 2$ . Bu masalani yana qanday ifoda bo'yicha yechish mumkin?

**230.**  $56 : 8 \cdot 8$        $54 : 6 \cdot 9$        $0 \cdot 6 : 2$        $(63 - 58) \cdot 7$   
 $49 : 7 \cdot 9$        $81 : 9 \cdot 8$        $0 : 8 \cdot 4$        $(32 - 23) \cdot 3$

### NOLGA KO'PAYTIRISH NOLGA BO'LISHNING MUMKIN EMASLIGI


**Har qanday sonning nolga ko'paytmasi nolga teng:  $5 \cdot 0 = 0$     $9 \cdot 0 = 0$     $12 \cdot 0 = 0$ .**

**231.**  $0 \cdot 7 = 0$        $0 \cdot 6$        $(78 - 59) \cdot 0$        $56 : 8 \cdot 0$   
 $7 \cdot 0 = 0$        $6 \cdot 0$        $(64 + 27) \cdot 0$        $72 : 9 \cdot 1$   
 $0 : 7 = 0$        $0 : 6$        $0 : (37 + 56)$        $54 : 6 \cdot 0$

**Nolga bo'lish mumkin emas:  $a : 0 = 0$ .**



**232.** Metri 2 so'mlik bir bo'lak satin gazlamaga 20 so'm, metri 6 so'mlik bir bo'lak shoyi gazlamaga 30 so'm to'landi. Shoyi gazlama satin gazlamadan necha marta ortiq olingan?



**233.** Maktab bog'iga 32 tup qora anjir, undan 4 marta kam oq anjir ekildi. Maktab bog'iga necha tup oq anjir ekilgan? Masala bo'yicha ifoda tuzing va uni yeching.

**234.** Noma'lum sonni toping:

$$72 - x = 43 + 18$$

$$36 : x = 82 - 73$$

$$x + 5 \cdot 8 = 96 - 32$$

**235.** Amallarni bajaring:

$$81 : 9 \cdot 6$$

$$(72 - 56) : 4$$

$$100 - 3 \cdot 7 + 1$$

$$49 : 7 \cdot 8$$

$$(32 + 68) : 10$$

$$100 - 26 + 4 \cdot 2$$

$$54 : 6 \cdot 7$$

$$(63 - 15) : 8$$

$$100 - 42 : 6 \cdot 5$$

**236.** 7 ta bir xil yashikda 42 kg pomidor bor. Shunday c yashikda necha kg pomidor bor? Masala bo'yicha ifoda tuzing va  $c = 8$ ;  $c = 9$ ;  $c = 10$  bo'lganda uning yechimini toping.



42 kg

**237.** Bolalar bog'chasiga 42 kg olma keltirildi. 6 kun 7 kg dan olma ishlatilgandan so'ng 18 kg olma qoldi. Bolalar bog'chasiga necha kg olma keltirilgan? Tenglama tuzib masalani yeching.





$$238. \begin{array}{cccc} 0 : 17 & 76 \cdot 1 & 0 : 32 & 0 \cdot 81 \\ 24 \cdot 0 & 76 : 1 & 65 : 65 & 1 \cdot 95 \end{array}$$

**239.** Daftarga ikkita uchburchak chizing, 1-uchburchakda bitta to'g'ri burchak bo'lsin, ikkinchi uchburchakda to'g'ri burchak bo'lmasin.

**240.** Misollarni yeching.

$$\begin{array}{ccc|ccc} 36 + 57 - 28 & 32 : 8 + 56 : 4 & 24 : 3 + 92 - 41 \\ 49 - 18 - 24 & 64 : 8 - 27 : 9 & 12 + 48 : 8 \cdot 7 \\ 84 - 76 + 19 & 3 \cdot 6 + 2 \cdot 7 & 54 - 27 : 3 + 5 \end{array}$$

### NOL BILAN TUGAGAN SONLARNI KO'PAYTIRISH VA BO'LISH

$$241. \begin{array}{cccc} 40 : 2 & 20 \cdot 2 & 100 : 5 & (85 - 65) \cdot 3 \\ 30 \cdot 3 & 90 : 3 & 30 \cdot 2 & (28 + 32) : 3 \end{array}$$

**242.** Quyidagi yozuvni qarab chiqing va yechilishini tushuntiring:

$$3 \cdot 20 = 20 \cdot 3 = 60$$

Mana bu misollarni ham shunday yeching.

$$2 \cdot 40 \qquad 2 \cdot 50 \qquad 3 \cdot 30$$

**243.** Ota ta'til vaqtida 92 ta fotosurat oldi. U ikkita o'ram rangli plyonkaning har biriga 30 tadan rasm oldi va bir o'ram plyonkaga oq-qora rasm oldi. Ota nechta oq-qora rasm olgan?

**244.** Misollarni yeching:

$$\begin{array}{cccc} 40 : 20 & 60 : 3 & 5 \cdot 20 & 80 : 2 : 20 \\ 80 : 20 & 60 : 30 & 100 : 2 & 100 : 5 : 20 \\ 100 : 50 & 40 \cdot 2 & 100 : 20 & 60 : 2 : 30 \end{array}$$



**245.**  $(16 + 14) \cdot 2$  ifoda bo'yicha masala tuzing va uni yeching.

**246.** Murodga har xil jonivorlar surati tasvirlangan 30 ta rasm va tabiat rasmi chizilgan 20 ta rasm sovg'a qilishdi. Murod ularni albomning 5 betiga teng bo'lib joylashtirdi. Murod har bir betga nechtdan rasm joylashtirgan?

**247.** Ifodalarni yozing va yechimini toping:

1) Kamayuvchi 85, ayiruvchi 40 va 2 ning ko'paytmasi.

2) Kamayuvchi 100 va 2 ning bo'linmasi, ayriluvchi 38.

3) Bo'linuvchi 38 va 42 ning yig'indisi, bo'luvchi 4.

**248.** Misollarni yeching:

$$(54 + 36) : 3 \quad (29 - 9) \cdot 4 \quad (74 - 69) \cdot 20$$

$$(98 - 18) : 4 \quad (62 - 2) : 3 \quad (81 - 79) \cdot 50$$

**249.**  $80 : 20$

20 ni qanday songa ko'paytirsak 80 hosil bo'ladi?  
20 ni 2 ga, 3 ga, 4 ga ko'paytiring.

$$80 : 20 = 4, \text{ chunki } 20 \cdot 4 = 80$$

**250.** Yulduzchalar o'rniga  $>$ ,  $<$  yoki  $=$  belgisini qo'ying:

$$80 : 20 * 80 : 40 \quad 7 \cdot 0 * 7 \cdot 1$$

$$30 : 2 * 30 \cdot 3 \quad 7 \cdot 0 * 7 + 0$$

**251.** Jadvaldan foydalanib ifodalarni yozing, ularni o'qing va bu ifodalarni yeching:

Qo'shiluvchi	50	$20 + 8$	19	$60 - 24$	36
Qo'shiluvchi	$30 + 7$	9	$46 - 31$	36	$63 : 7$
Yig'indi					




**252.** Jadvaldan foydalanib ifodalarni yozing, ularni o'qing va yeching.

Kamayuvchi	70	$52 - 7$	42	63	$63 : 9$
Ayiriluvchi	$20 + 4$	20	$35 : 7$	$9 \cdot 4$	$24 : 6$
Ayirma					

**253.** 1) Kutubxonaga 20 tadan bog'langan 80 ta kitob keltirildi. Savol qo'ying va masalani yeching.

2) Teskari masalalar tuzing va ularni yeching.



**254.** 1) Quyidagi sonlarni 2 marta orttiring: 40, 10, 20, 50, 30, 9, 7.

2) Quyidagi sonlarni 2 ta orttiring: 18, 20, 48.

3) Quyidagi sonlarni 2 marta kamaytiring: 16, 40, 100, 80, 20, 60.

4) Quyidagi sonlarni 2 ta kamaytiring: 18, 30, 60.

**255.** Sinf kutubxonasi uchun 6 o'quvchi 2 tadan, 6 o'quvchi 3 tadan kitob olib kelishdi. Bolalar hammasi bo'lib nechta kitob olib kelishgan?

**256.** 20 ta ko'rpachani qoplash uchun 40 m gazlama kerak. 18 m gazlama ishlatildi. Nechta ko'rpacha qoplangan?

**257.** Tomonlari 4 sm va 3 sm bo'lgan to'g'ri burchakli to'rtburchak chizing va uning perimetrini hisoblang.

**258.** Misollarni yeching. Ulardan qaysilarini turli usullar bilan yechish mumkinligini va qaysilarini yechish mumkin emasligini tushuntiring:

$$(44 + 16) : 3$$

$$(32 + 16) : 8$$

$$(7 + 9) : 2$$

$$(62 + 18) : 40$$

$$(16 + 40) : 8$$

$$(5 + 8) : 1$$



**259.** Quyidagi masalalar nimasi bilan o'xshash va nimasi bilan farq qilishini aniqlang. Har bir masalani alohida yozib, ularni yeching:

1) Bir to'pda 24 m, ikkinchisida undan 8 m ko'p gazlama bor edi. 2 to'pdagi gazlamadan bir necha bir xil ko'ylak tikildi, har bir ko'ylakka 4 m gazlama ketdi. Nechta ko'ylak tikilgan?

2) Bir to'pda 24 m, ikkinchisida undan 8 m kam gazlama bor edi. Bu gazlamalarning hammasidan bir xilda bir necha ko'ylak tikildi, har bir ko'ylakka 4 m gazlama ketdi. Nechta ko'ylak tikilgan?

**260.** Amallarni bajaring:

$$\begin{array}{lll} 90 : 30 \cdot 8 & (100 - 72) : 4 & (36 - 29) \cdot 7 \\ 40 \cdot 2 : 20 & (63 + 27) : 9 & (72 - 68) \cdot 20 \\ 100 : 20 \cdot 9 & (17 + 68) - 70 & (48 - 30) : 3 \end{array}$$

**261.** Quyidagi tenglamalarning yechilishini tugating:

$$\begin{array}{ll} 1) 72 - (54 - x) = 52 & 2) (a - 45) - 17 = 38 \\ 54 - x = 72 - 52 & a - 45 = 38 + 17 \\ 3) 20 - (c - 8) = 13 & \\ c - 8 = 20 - 13 & \end{array}$$

**262.** Tenglamani yeching.

$$(18 + 20) - x = 12 \qquad (x - 15) + 8 = 40$$

**263.** 2 ta bloknot 18 so'm...

Masalani davom ettiring, u shunday yechilsin:  
 $18 : 2 \cdot 5$


**264.** Misollarni yeching.

$$\begin{array}{lll} 90 : 3 \cdot 2 & (34 - 29) \cdot 20 & (6 + 7) \cdot 4 \\ 60 : 20 \cdot 9 & (48 + 52) : 2 & (7 + 3) \cdot 8 \\ 80 : 40 \cdot 8 & (76 - 36) : 4 & (3 + 4) \cdot 5 \end{array}$$





- 265.** Ikkita bir xil portfelning og'irligi ikkita rukzak va bir sumkaning og'irligiga teng. Agar 1 rukzak 8 kg, sumka 4 kg kelsa, har bir portfelning og'irligi qancha?



- 266.**  $20 \cdot 2$   $40 : 2$   
 $2 \text{ o'nlik} \cdot 2 = 4 \text{ o'nlik}$   $4 \text{ o'nlik} : 2 = 2 \text{ o'nlik}$   
 $20 \cdot 2 = 40$   $40 : 2 = 20$

### QO'SHIMCHA MASHQLAR

- 267.** Misollarni yeching.

$10 \cdot 5$	$50 \cdot 2$	$100 : 2$	$(84 - 34) \cdot 2$
$20 \cdot 4$	$60 : 2$	$20 \cdot 5$	$(35 + 34) : 7$
$30 \cdot 3$	$80 : 4$	$30 \cdot 2$	$(73 + 27) : 5$
$40 \cdot 2$	$90 : 3$	$60 : 3$	$(52 + 38) : 3$

- 268.** 20 sonni qanday songa ko'paytirilsa 80 sonini hosil qilish mumkin? 60 sonini nechaga bo'lib 20 sonini hosil qilish mumkin?
- 269.** Damira kitobning 80 ta sahifasini 4 kunda o'qidi. U har kuni nechta sahifadan o'qigan?
- 270.** Maktab kutubxonasi uchun 10 o'quvchi 4 tadan kitob keltirdilar. O'quvchilar hammasi bo'lib nechta kitob keltirdilar?
- 271.** Bolalar ko'rgazmasiga 10 ta o'g'il bola 3 tadan rasm, 10 ta qiz bola 4 tadan rasm topshirishdi. Ko'rgazmaga hammasi bo'lib nechta rasm topshirilgan?




**272.** Matbuot do'koniga 90 ta gazeta keltirildi. Gazetalar 30 tadan bog'langan edi. Matbuot do'koniga necha bog'lam gazeta keltirilgan?

**273.** Uzunligi 80 m bo'lgan shlangni 4 ta bir xil bo'lakka bo'lindi. Har bir bo'lakda necha metr shlang bor?

**274.** Shuhrat 80 ta misolni 10 ta ustunga yozdi. Shuhrat har bir ustunga nechtdan misol yozgan?

**275.** Mehnat darslarida 10 ta o'quvchi 3 tadan jo'va yasashdi. O'quvchilar hammasi bo'lib nechta jo'va yasashgan?



**276.** Olim son o'yladi, uni 4 ga ko'paytirdi va 80 sonini hosil qildi. Olim qanday sonni o'ylagan?

**277.** Gavhar sonni o'yladi, uni 3 ga ko'paytirdi va 60 sonini hosil qildi. Gavhar qanday sonni o'ylagan?

**278.** Mehnat darslarida 10 ta qiz bola ikkitadan kashta tikishdi. Qizlar hammasi bo'lib nechta kashta tikishgan?

**279.** Misollarni yeching:

$$(25 + 15 - 10) : 3$$

$$30 \cdot 2 - 33$$

$$30 \cdot 3 - 75$$

$$(52 - 22 + 20) : 5$$

$$40 \cdot 2 - 43$$

$$5 \cdot 20 - 86$$

$$(74 - 43 + 29) : 6$$

$$10 \cdot 8 - 62$$

$$10 \cdot 6 - 24$$

$$(90 - 70 + 60) : 6$$

$$20 \cdot 4 - 55$$

$$5 \cdot 10 - 30$$

**280.** Murod 10 minutda rasmlar uchun 1 ta paketcha tayyorladi. 5 ta shunday paketchni tayyorlash uchun necha minut ketadi? 6, 8, 9 ta paket tayyorlash uchun-chi?



**281.** Bo'lish amalini bajaring.

$$100 : 20$$

$$10 \text{ o'n} : 2 \text{ o'n} = 5$$

$$100 : 10$$

$$100 : 20$$

$$20 \cdot 5$$

$$100 : 2 : 10$$

$$60 : 20$$

$$60 : 60$$

$$100 : 2$$

$$60 : 3 : 2$$

$$50 : 10$$

$$40 \cdot 4$$

$$90 : 30$$

$$80 : 4 : 20$$

$$80 : 40$$

$$60 \cdot 6$$

$$60 : 30$$

$$40 : 4 \cdot 10$$

**282.** Maktab yotoqxonasi uchun 60 metr gilam sotib olindi. Har bir xonaga 6 metr gilam to'shalsa, nechta xonaga gilam to'shaladi?



60 m

**283.** Misollarni yeching:

$$20 : 4 - 18$$

$$(44 + 26) : 7$$

$$(46 + 34) : 40$$

$$60 : 3 + 45$$

$$(23 + 37) : 30$$

$$(37 + 53) : 30$$

$$10 \cdot 8 - 22$$

$$(95 - 35) : 6$$

$$(64 - 14) : 5$$

$$100 : 2 - 34$$

$$(87 - 37) : 5$$

$$(23 + 37) : 6$$

**284.** Boqqa o'rik va gilos daraxti ko'chatlari ekildi. O'rik daraxti ko'chati 10 tupdan 3 qator ekildi. Gilos 10 tupdan 4 qator ekildi. Bog'da necha tup mevali daraxtlar ekilgan?

**285.** Bitta tovuq bir oyda 3 kg don yeydi. 10 ta, 20 ta, 30 ta tovuq bir oyda necha kg don yeydi?

**286.** Tenglamalarni yeching.

$$R - 28 = 30$$

$$45 + x = 80$$

$$90 : x = 9$$

$$x \cdot 3 = 30$$

$$60 : a = 10$$

$$x : 10 = 8$$

**287.** 5 sm = ... mm

60 mm = ... sm

9 sm = ... mm

70 mm ... sm

40 dm = ... mm

40 sm = ... dm



× × × × × × × × × × × :

# To'rtinch



Shunday sr  
bo'lsin:  $(7 + 7) \cdot 2$   
 $4 + 8) \cdot 8$   
 $24 \cdot 3 = 10) \cdot 3$   
Por. P.

6.

7.

## IKKI XONALI SONNI BIR XONALI SONGA KO'PAYTIRISH

1. Amallarni bajaring:

